
Xotin-qizlarga grant sertifikatlari topshirildi

Farg'ona shahridagi Ishga marhamat monomarkazida "Qishloq ayollarini iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish" loyihasi doirasida grant sertifikatlarini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Jahon banki, Oila va xotin qizlar qo'mitasi, "Mehrjon" nodavlat tashkiloti hamda Oila va xotin-qizlar bo'limi vakillari, shuningdek, Qo'shtepa, Yozyovon, Furqat, Co'x tumanlaridan Jahon banki granti ajratilayotgan ayollar ishtirok etdi.

Tadbir davomida Qo'shtepa tumanidan oltita guruhlardan tashkillangan MCHJ larga 40 000 dollardan ziyod mablag' uchun sertifikatlar topshirildi.



2024-09-21 13:20:48